Xarid qilingan uskunalarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 1-noyabrdagi “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 3365-sonli qarori asosida FA ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasi bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda.

Bugungi kunga qadar mazkur qaror asosida xarid qilingan laboratoriya jihozlari to’liq ishga tushirilgan va ularda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xususan, Innovatsion rivojlanish vazirligi Axborot xizmati tomonidan taqdim qilingan ma’lumotga (https://kun.uz/news/2021/10/18/innovatsiya-vazirligi-yetkazib-bergan-664-ming-dollarlik-ilmiy-laboratoriya-asbob-uskunalari-ishlatilmayotgani-aniqlandi) javoban quyidagilarni ma’lum qilamiz:

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi institutiga Germaniyaning “ERVEKA” kompaniyasining “AR-403” universal qurilmasi xarid qilingan.

Mazkur AR-403 qurilmasi asosan tibbiyotda qo’llaniladigan polimer tarkibli preparatlar olishda ishlatiladi. Ushbu qurilmada polimer eritmalarini tayyorlash, ularni tozalash, polimer tarkibiga biologik faol preparatlar kiritish reaktsiyalarini olib borish, hosil bo’lgan polimer tarkibli preparatlarni ajratib olish, tozalash, maydalash ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi. Bugungi kunda ushbu qurilma to’liq ishga tushirilgan bo’lib, unda tozalangan KMTs, “Poliardez” dezinfektsiya vositasini va virusli kasalliklarga qarshi “GlazAvir” ko’z plyonkalarini olish bo’yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.



Umumiy va noorganik kimyo institutiga yetkazib berilgan 6 turdagi ilmiy asbob-uskunalar montaj qilib, 2021-yilning avgust oyida ishga tushirildi va mazkur uskunalarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, ISP-OS Agilent 5800 qurilmasidan yangi sintez qilib olingan biologik faol birikmalar tarkibidagi mirkoelementlar (Cu, Ni, So, Fe, Mn va boshqalar)ning sifat va miqdor analizlari uchun foydalanilmoqda. Shu bilan birga, Olmaliq Kon-metallurgiya va Navoiy kon-metallurgiya zavodlarining konsentrat, ruda va


chiqindilari tarkibidagi elementlarni tahlili (Au, Ag, Cu, Mo, Re)da, RETSCH PM400 Planitar Tegirmondan yangi mineral o’g’itlar qattiq granulalarini mayda shakllarini olishda foydalanilmoqda. Sarry 5000 spektrofotometridan yangi turdagi olingan suv tozalovchi adsorbentlardan foydalanganda suvdagi og’ir metallarni tahlil qilishda keng qo’llanilmoqda.



Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-336-son qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining 2020-yil 19-noyabr 145-son bayoniga muvofiq Xorazm Ma’mun akademiyasida 2021-yil iyun oyidan kapital ta’mirlash ishlari boshlangan.

Shu munosabat bilan, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan Xorazm Ma’mun akademiyasiga yetkazib berilgan uskunalar, xususan, SETLINE rusumli universal o’ta sezgir differentsial skanerlovchi kalorimetrning turli salbiy omillar (chang, silkinish va h.k.) ga sezgirligi yuqori bo’lganligi hamda bu qurilmaning ishchi holatiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligi inobatga olinib, konservatsiya holatida saqlanmoqda. Ta’mirlash ishlari tugagach uskunalar to’liq ishga tushiriladi.

Shuningdek, vazirlik tomonidan Bioorganik kimyo institutiga yetkazib berilgan “ECLIPSE Ti2-U” rusumidagi invertorli fluoresan mikroskopi montaj qilinib, joriy yilning avgust oyida ishga tushirilgan.



Hozirgi kunda mazkur mikroskopda “Immunotrop va o’smaga qarshi tabiiy birikmalarni identifikatsiyasi va tuzilish-funktsional tadqiqoti” va “Yangi avlod rekombinant toksinlarini ishlab chiqishda ribosomani nofaollashtiruvchi oqsillarning tuzilishi va funktsiyasi” EAPI-2021-50 Yevroosiyo loyihasini bajarishda in vitro sharoitida rak hujayralari kulьturasida sitotoksik faollikni o’rganish ishlari olib borilmoqda.